

## **SAYYID AMIR KULOLNING ISLOM DINIGA QO'SHGAN HISSASI**

Ilmiy rahbar: Samatov X. U.

Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti Samarqand filiali

Norboyev Oybek

AX23-08 guruh talabasi

### **Anotatsiya:**

Ushbu maqolada Xo'ja Sayyid Amir Kulolning islam diniga qo'shgan ulkan hissalari va qilgan ishlari to'g'risida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** islam, din, xalifa, ilm, duo, ummat, g'aflat, gunoh, zaif, rivoyat.

Mamlakatimizda kamol topgan ulug' muhaddislar, fozilu fuzalolarning nomini butun dunyoda yaxshi bilishadi. Bu zamindan voyaga yetgan Naqshbandiya tariqati namoyandalari sifatida nom qozongan, ulug' tasavvuf ilmi bilimdonlari — Xoja Abdulxoliq o'ijduvoniy, Xoja Muhammad Orif ar-Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va hazrat Bahouddin Naqshbandga yetti pir maqomi berilgan. Quyida «Yetti pir» maqomi qatoriga qo'shilgan Sayyid Amir Kulol hazratlarining bizga qoldirgan ma'nnaviy-ma'rifiy merosini o'rganish, kelajak avlodga yetkazish bo'yicha qilina-Bu zamindan voyaga yetgan Naqshbandiya tariqati namoyandalari sifatida nom qozongan, ulug' tasavvuf ilmi bilimdonlari -Xoja Abdulxoliq o'ijduvoniy, Xoja Muhammad Orif ar-Revgariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy, Xoja Ali Romitaniy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va hazrat Bahouddin Naqshbandga yetti pir maqomi berilgan.<sup>1</sup> Quyida «Yetti pir» maqomi qatoriga qo'shilgan Sayyid Amir Kulol hazratlarining bizga qoldirgan ma'nnaviy-ma'rifiy merosini o'rganish, kelajak avlodga yetkazish bo'yicha qilinayotgan sa'y-harakatlar bilan tanishsak. yotgan sa'y-harakatlar bilan tanishsak.

Payg'ambar (s.a.v.)ning naslidan bo'lgani uchun "Sayyid", "Amir", kulolchilik qilgani uchun. "Kulol" deyilgan Amir Kulolning haqiqiy ismi noma'lum.

<sup>1</sup> Sayyid Amir kulolning <https://uzhurriyat.uz/2017/04/25/sayyid-amir-kulol-haqida-haqiqatlar/> (veb sayti) .



Otasi Amir Hamza, yassaviy shayxlaridan Sayyid Otaning do'sti bo'lib, Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida yashardi. Amir Kulol taxminan hijriy 680 (milodiy 1281) sanasida tug'ilgan. Xo'ja Sayyid Amir Kulol, xalq orasida Kalon ("Baland") deb nom chiqargan hanafiyalar e'tiqodining diniy olimi, Bahovuddin Naqshbandiyning so'fiy va diniy ustozi bo'lgan. Afsonaga ko'ra, "U baland bo'yli, yelkalari keng odam edi. Chimirilgan qoshlari ostidan o'tkir ko'zlar qarab turar, terisi esa quyoshda toblangan, bug'doy rang edi. Yuzining chetlari oqorgan soqol bilan qoplangan, o'zini kamtar va muloyim tatar edi. So'zlashganda e'tiroz bildirmas, o'jarlik qilmas edi. Yoshligida kurash bilan shug'ullanganligi uchun jismonan yetuk, mushakdor ko'rinishga ega edi. Dindorligiga kelsak, uning haqqoniyligiga shubha qiladigan odamning o'zi yo'q edi, chunki u o'zini bilimli va shariatdagi tariqat va ma'rifatni o'zida jam qilgan edi".<sup>2</sup>

Yoshligida kurashga qiziqqan Amir Kulol Romitan qishlog'idagi maydonda kurash tushayotganida o'sha davming mashhur shayxi bo'lgan Muhammad Bobo Samosiy chekkadan turib uni kuzatadi. Muridlari undan nega kurashni tomosha qilayotganini so'raganlarida: "Bu maydonda bir er yigit bor, ko'pchilik uning suhbat bilan kamolga erishadi, uni ovlashga harakat qilyapman" deh javob bergan.

Shu paytda Muhammad Bobo Samosiyning nazaridan ta'sirlangan Sayyid Amir Kulol kurash maydonini tark etib Samo siyning orqasidan ergashib ketadi va unga murid bo'lib, suhbatlaridan bahramand bo'ladi. Sayyid Amir Kulol haftaning dushanba va chorshanba kunlari o'zi yashayotgan Suxariy qishlog'idan Samosiy qishlog'iga qatnab, ancha yillar mobaynida shayxining suhbat va xizmatida bo'ladi. Shu asnoda sayru sulugini tamomlagan Amir Kulol, Muhammad Bobo Samosiyning ilg'or xalifalaridan biriga aylandi, keyinchalik u ham ko 'plab murid yetishtirdi<sup>3</sup>. Rivoyatga ko'ra kurnlardan bir kun Amir Kulol juma namozini Buxoroda ado etgach ba'zi muridlari bilan Suxariydagi uyiga qaytar ekan, Gulobodda o'tloqda o'tirgan bir guruhni ko'radi. Amir Temur ham bulaming orasida o'tirgan edi. Temur bu zotning Amir Kulol ekanligini bilgach darrov uning oldiga chopib kelib nasihat so'radi. Ammo Amir Kulol: "Biz mashoyixlardan ishorat kelmagunicha biror narsa deya olmaymiz. Ammo kuting \_va ogoh bo'ling Sizning ishingizda ziyo ko'rayapman" deb uyiga qaytdi.

U yerda xilvatga kirgan Amir Kulol xufton namozidan keyin sirdoshi Shayx Mansumi chaqirtirib: "Tezda Temuming yoniga borib, darhol Xorazmga harakat

<sup>2</sup> [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sayyid\\_Mir\\_Kulol](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sayyid_Mir_Kulol)

<sup>3</sup> Oltin halqa 99-bet.



qilishini, u yemi fath etgach esa Samarqandga yo 'nalishini ayt" dedi. Shayx Mansur bu xabami yetkazgach Temur darhol Xorazmga yo'l oldi. U ketishi bilan biroz vaqt o'tib bir guruh kelib Temuming chodirini qurshab oldilar, ammo chodir bo'sh bo'lgani uchun hech kimni topa olmadilar. Bu rivoyatni tasdiqlovchi ayrim jumlalar Temurga nisbat berilgan "Temur tuzuklari" asarida ham uchraydi. Bu asarda Temur Badaxshonga bormoqchi ekanini, ammo Amir Kulol unga Xorazmga borishi kerakligini tavsiya qilgan, bu tavsiyaga ko'ra Xorazmga borib g'olib bo'lganini aytadi. Keyinchalik Samarqandga joylashgan Temur, Amir Kulolni Samarqandga da'vat qilgan bo'lsa da, bu da'vatga ijobat qilmagan Amir Kulol, o'zining o'miga o'g'li Amir Umamijo'natib, Temurdan uzrli sababini bildirgan. Temurga taqvo va adolat bilan harakat qilishni nasihat qiladi. Yana bir rivoyatga ko'ra, Temur Amir Kulolning xalifalaridan Shamsiddin Kulol bilan birgalikda bir kecha Amir Kulolni ziyorat qiladi. Unga murid bo'ladi. Amir Kulol ham uning tasavvufiy ta'limini Shamsiddin Kulolga havola etadi. Amir Kulol hazratlari o'sha davrda Movarounnahrda yashagan ne'matullohiya tariqatining asoschisi Shoh Ne'matulloh Valiy Kirmoniyga (vafotij hijriy 834/milodiy, 1431)"askarlaringdan ba'zilari unga murid bo'libdi. Agar saltanatga da'vo qilsa jiddiy muammo chiqishi mumkin" deb Temumi ogohlantiradi. Temur "Bir mamlakatda ikki hukmdor bo'lsa, notinchlik kelib chiqadi, boshqa mamlakatga ketsinlar" deb Shoh Ne'matullohni Movarounnahrda chiqarib yuboradi. Naqshbandiya adabiyotida uchramagan bu rivoyat Shoh Ne'matullohning manqiblarini hijriy 911 (milodiy 1505) sanasida to 'plagan Abdurazzoq Kirmoniy tarafidan qayd etilgach, bu ma'lumot boshqa asarlarga ham o'tgan. Temur bilan yaqin munosabatda bo'lgan Amir Kulol uni shunday vaziyatdan ogohlantirgan bo'lishi mumkin.<sup>4</sup>

Amir Temur Samarqandga joylashgandan keyin Buxoroga safar qilishni istaydi. Shu sababli Amir Kulol hazratlariga xabar jo 'natib, "Hazrat Buxoroga borishimizga ruxsat beradilarmi? Shoyad izn berilmasa, o'zlarini Samarqandga tashrif buyurishlarini iltimos qilamiz. Qanday lutf etsalar, shunday bajo keltiramiz" deydi. Temurning bu taklifiga binoan Amir Kulol hazratlari na borishni, na bormasligini qabul qilolmasligini, uning haqqiga duo qilayotganini bildiradi. Bu xabami bildirish va Temur bilan uchrashish uchun o'g'li Amir Umami tayinladi. O'g'lini jo'natarkan shunday dedi: "O'g'lim! Amir Temurga ayt! Agar Alloh taolonining roziligi yo'lida yurishni xohlasa, taqvadan va adolatdan aslo ayrimas. Bulami o'ziga shior qilib olsinki, qiyomat kuni najot topa bilsin! Tag'in barcha

<sup>4</sup> Oltin halqa 101-bet.



talabalarimiz bilan u kishining haqiga doim duoda ekanimizni ham yetkaz! Agar dunyoga mayl qilsa, mavjud holatining natijasini ko'rolmaydi."Amir Kulol hazratlarining o'g'li Amir Umar Samarqandga borib, Temur bilan ko 'rishdi. otasining aytganlarini aynan yetkazdi. Bir necha kun o'tib Buxoroga qaytish uchun Temurdan ruxsat so'radi.Temur xayrlashayotib unga: "Buxoro va atrofining tasarrufini sizga bersak, iltimos qabul qiling" dedi. Amir Umar: "Bunga izn yo'q" dedi. Shunda Amir Temur: "Unday bo'lsa Buxoro shahrini Amir Kulol hazratlariga in'om etaylik" deganida, Amir Umar yana: "Bunga ham izn yo'q" dedi. Temur: "Hech bo'lmasa Buxoro yaqinida yashayot-ganining bir qishloqni sizga bersak" deb yana iltimos qildi. Amir Umar dedi: "Otamning og'zidan siz uchun shunday deganini eshitdim: "Agar Allohning do'sti bo'lgan ulug' valiylaming qalbidan joy olmoqchi bo'lsa, taqvodan vaadolatdan ayrilmasin. Qiyomat kuni Alloh taoloning rahmatiga yetish shu orqali amalga oshadi".<sup>5</sup> Do'st va muridlariga diniy ilm va amrlami mahkam tutishni nasihat qilgan Amir Kulol shunday deydi: "Sizdan biron kishi mazhabga aloqador bir savol so 'rasa va siz buni bilmasangiz, bundan da yomon bir narsa yo'q va bu holat g'aflatda ekan-ligingizning alomatidir. Olimlarga yaqinlashing, chunki ular ummatning ziyo-sidirlar.

Amir Kulol hazratlari yana shunday deydilar: "Kechalarni ibodat bilan o'tkaz-sangiz va ochlikdan belingiz kamon yoyidek inja bo'lsada, luqma va xirqangiz halol bo'limgunicha maqsadga aslo yetolmaysiz! Ey do'stlar! Ixlosli bo'linglar! Har bir ishingizni Allohning roziligi uchun qilsangiz najot topgaysizlar! Ixlossiz qilingan amal, podshohning muhri bo'limgan tanga kabitdir. Yuzida pod-shohning muhri bo'limgan tangani hech kim olmaydi.<sup>6</sup> Yuzida muhri bosilganni esa hamina oladi. Ixlos bilan qilingan ozgina amal, Janobi Haqning nazdida qilingan ko'p amal kabitdir. Beixlos bajarilgan ko'pgina amalning esa Haq huzurida qimmati yo'q. Demak, har bir ibodat va ishingizni ixlos bilan qilsangiz Allohga yaqin va Uning rozilagini olasizlar". "Dunyo sevgisi va unga bog'liqlikdan qutulmaguncha, vujud xumi biron ishga yaramaydi. Xumni pishirish uchun butun holicha qozonga qo'yadilar. Ma'naviy tasarruf qozoniga kirgan xumlardan ba'zilari butun, ba'zilari esa siniq chiqadi (ya'ni, kamchiliklarini yo'qota olmaydi, nafsoniy orzu havaslaridan

<sup>5</sup> Sayyid Amir kulolning [https://uzhurriyat.uz/2017/04/25/sayyid-amir-kulol-haqida-haqiqatlar/\(veb sayti\)](https://uzhurriyat.uz/2017/04/25/sayyid-amir-kulol-haqida-haqiqatlar/(veb%20sayti)).

<sup>6</sup> Sayyid Amir kulolning [https://uzhurriyat.uz/2017/04/25/sayyid-amir-kulol-haqida-haqiqatlar/\(veb sayti\)](https://uzhurriyat.uz/2017/04/25/sayyid-amir-kulol-haqida-haqiqatlar/(veb%20sayti)).

qutula olmaydi). Biz butun chiqmagan cho'mlaklardan ham umidvormiz. Chunki ulami darrov kukun holiga keltirib, boshqa bir loy bilan qorishtirib, xum yasaymiz va yana o'choqqa qo'yamiz. U butun chiqqunga qadar shunday qilaveramiz. Ya'ni, erinmasdan, bezillamasdan tarbiyalariga davom etamiz." Amir Kulolning: "(Shariatda berilgan) ruxsatlardan uzoq turing va kuchingiz yetgunicha azimat bilan amal qiling. Ruxsat bilan amal qilish zaif insonlaming ishidir" degan gapi ham rivoyat qilinadi. Sayid Amir, o'zining ma'naviy kamolotiga erishib shayx Muhammad Bobo Sammosiyning to'rtinchchi o'rribbosari bo'lganida, hurmatli Shayx unga o'zining yosh shogirdi "ma'naviy o'g'li" keyinchalik eng mashhur so'fiylik tariqatlaridan biri - "Xo'jagon Naqshbandiya"ning asoschisi bo'lib yetishgan Bahovuddin Naqshbandiyni ishonib topshirgan. O'zining ma'naviy-ma'rifiy faoliyati davomida Sayid Amir Kulol, Xoja Bahovuddin Naqshband, Mavlono Orif Deggaroni, Xoja Jamol Deg'ay, Xoja Darzuniy, Shamsuddin Kulol, Mavlono Jamoliddin Keshiy kabi, yuzlab shogirdlarni tarbiya qildi. Sayid Amir Kulolning ko'plab izdoshlari bo'lib ularning orasida keyinchalik so'fiylarga aylanib otasining yo'lini davom ettirgan to'rt o'g'li ham bor edi.

U shogirdlarini qat'iy ma'naviyat bilan tarbiyalagan va shogirdlarini Muhammad Payg'ambarimizning odamlar har kuni qiladigan kichik gunohlar yig'ilib katta gunohlarga aylanishi va ularni do'zaxga yetaklashi to'g'risidagi so'zlarini misol keltirib kichik gunohlardan qaytargan.

Sayid Kulol, 90 yil umr ko'rib 1370 yilning noyabrda vafot etgan. Uzoq yillarda yuksak dunyoviy va diniy ilm sohibining ma'naviy-ma'rifiy dunyosi va merosi o'rganilmadi. Shu bois bo'lsa kerak, u kishi haqida aksariyat hamyurtlarimizda yetarlicha ma'lumot yo'q, -deydi Vazirlar mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mitaning Buxoro viloyat bo'limi vakili Mansur Nurillaev. -Borlari ham juda kam. Hazrat haqlaridagi mukammal ma'lumotlar u kishining nevaralari Shaxobiddin tomonidan yozilgan «Maqomoti Amir Kulol» kitobida mavjud. Mazkur kitobning toshbosma va qo'lyozma nusxalari ayni paytda Toshkent sharqshunoslik ilmiy tadqiqot institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Bundan tashqari, 2010 yilda «Hazrat Sayyid Amir Kulol» tarixiy risolasini kitobxonlar e'tiboriga havola etdik. Ushbu risolada ham o'quvchilar hazratning karomatlari va yuksak salohiyatlari haqida aniq dalillar bilan tanishishlari mumkin. Zero, vatandoshimizning merosini o'rganish va bugungi o'quvchilarga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz istiqlolga erishganidan so'ng nomlari qayta tiklanib, faoliyati o'rganilgan, maqbaralari obod maskanlarga aylantirilgan ulug'ajdodlarimiz qatoridan Sayyid Amir Kulol hazratlari ham joy egalladi. Hazratning

muborak qabrlari Buxoro viloyati Kogon tumanı Yangi hayot qishlog‘ida joylashgan. 1997 yilda Qiziltepa — Kogon avtomagistrali yoqasida joylashgan Yangi hayot qishlog‘ida go‘zal va purviqor majmua qad rostladi. 2007-2008 yilda qayta rekonstruktsiya ishlari olib borilganidan so‘ng ziyoratgoh yanada obod go‘shaga aylantirilib, yangi maqbara barpo etildi. Har kuni bu maskanga mamlakatimiz va xorijdan yuzlab ziyoratchilar tashrif buyuradi. Bu o‘z navbatida Hazrat Amir Kulolga islom olamida bo‘lgan yuksak e’tirof nishonasidir.<sup>7</sup>

Xulosa o‘rnida ta’kidlab o‘tish kerakki, ulug‘ bobokalonimiz butun umrini o‘z qishlog‘ida o‘tkazgan. Biror marotaba uzoq safarlarga yoki haj ziyoratiga borgan emas. Lekin u kishining islom diniga oid fikrlari va qarashlari butun musulmon olamida keng tarqalgan. Ular hanuz o‘z mavqeini yo‘qotgan emas. Chunonchi, diniy ta’limotni uzoqdan emas, oldimizda oqayotgan «ummon» tubidan izlash maqsadga muvofiqidir. Movarounnahr, xususan, Buxoroda Islom dini rivojiga munosib hissa qo‘shgan allomalar ko‘p. Uning ilm nuri hamon butun musulmon olamini charog‘on etayotir. Ko‘hna va muborak bu zaminda bir bora bo‘lishni orzu qiladiganlar dunyoning turli burchida topiladi. Ayniqsa, islom olamida mashhur buyuk avliyolar yetti pir nomini olgan tariqat va tasavvuf olamining yirik namoyandalari mangu qo‘nim topgan maskanlarni ziyorat etishni ko‘pchilik orzu qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Oltin halqa [Matn] / Najdat To’sun. – Toshkent: <<Qamar media>> nashriyoti, 2022. -224 b.
2. Sayyid Amir kulolning <https://uzhurriyat.uz/2017/04/25/sayyid-amir-kulol-haqida-haqiqatlar/>(veb sayti) .
3. Sayyid Amir Kulol [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sayyid\\_Mir\\_Kulol](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sayyid_Mir_Kulol) .
4. [https://uzpedia.uz/pedia/amir\\_sayyid\\_kulol](https://uzpedia.uz/pedia/amir_sayyid_kulol) (veb sayti).
5. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.
6. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
7. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.

<sup>7</sup> <https://uzhurriyat.uz/2017/04/25/sayyid-amir-kulol-haqida-haqiqatlar/>





## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> January, 2024

ISSN: 2835-5733

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

8. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
9. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
10. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
11. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
12. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
13. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.